

R. Zohid*(Toshkent, O'zbekiston)*

zokhidov@navoiy-uni.uz

Sharh ilmi ildizlari

Abstrakt

Maqolaning avvalida sharh ilmining vujudga kelish sabablari va bu ilmning rivojlanish bosqichlarini aniqlashda asos vazifasini o'tagan ilmiy mezon taqdim etilgan. Bunda ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, aniq yoki boshqa har bir fan sohasi o'zining mavjudligini insoniyat tamadduni tarixiga konkret munosabati bilan namoyon qilishi va mana shu konkret munosabatning aniqlik chegarasi qay darajada bo'lishi muhimligi ta'kidlangan. Shu ilmiy mezonga ko'ra sharh ilmining vujudga kelishi, shakllanishi, mustaqil ilm sifatida barqarorlashuv hodisalari Islomdan keyingi davr bazasida tadqiq etilgan. Sharh ilmining tarmoqlanishi va barcha turdagi sharhlar uchun umumiy, tarmoqlararo barqaror qonuniyatlar mavjud ekanligi tasnifiy dalillar bilan asoslangan. Sharh ilmining tekshirish usullari, ilmiy tamoyillari nafaqat zamonaviy adabiyotshunosligimiz uchun, balki germeneytika ta'limotining asoschilari bo'lgan G'arb olimlarining ilmiy-adabiy mezonlari uchun ham zamin vazifasini o'tagan degan qarash ilgari surilgan. G'arb olimlarining germeneytika haqidagi qarashlari va Sharq adabiyotiga xos bo'lgan tushunish va tushuntirish ilmining farqli va mushtarak xususiyatlari qiyoslangan. Mumtoz asarlarni tushunish yo'lidagi talqinlarning mumtoz asar ma'no qatlamini ochishdagi vazifasi dalillangan.

Kalit so'zlar: *sharh ilmi, mezon, germeneytika, davr, ilmiy tamoyil, barqaror qonuniyat.*

Muallif haqida: Rashid Zohid – filologiya fanlari doktori, *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.*

Tavsiya etiladigan havola: Zohid, Rashid. 2019. "Sharh ilmi ildizlari". *Oltin bitiglar* 4: 34—48.

Kirish

Har qanday atamaning yasashida soʻzning lugʻaviy maʼnolari negiz vazifasini oʻtaydi. Shu negiz atrofida muayyan tushuncha barqarorlashadi va yangi nom bilan atala boshlaydi. Jumladan, *Sharh ilmi* atamasiga taʼrif berishdan oldin “sharh” soʻzining lugʻaviy maʼnosiga eʼtibor qaratish lozim. Arabcha “sharh” soʻzi شَرَح feʼlidan yasalgan boʻlib, mashhur lugʻatlarda — *ochmoq; bayon qilmoq, tushuntirmoq, yoritmoq, izohlamok; boʻlaklab kesmoq* maʼnolarida izohlangan [لسان العرب]. تاج العروس (“Kelinning toji”) lugʻatida “sharh” soʻzining *kengaytirmoq* maʼnosi ham borligi quyidagi misolyordamida izohlangan: — شرح الله صدره لقبول الخير... اى «وسعه» [تاج العروس 1645].

Demak, mazkur maʼnolarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, *sharh ilmi* ning reallashuvi abstrakt zaminda kechib, atama sifatida bu birikma maʼnoning yopiq tomonlarini ochish, qorongʻi jihatlarini yoritish, qisqa ifodalarning maʼnolarini kengaytirib, yoyib izohlash kabi maqsadlar uchun xizmat qiladi.

Sharh ilmining paydo boʻlish makoni va zamoni, uning vujudga kelish sabablari, rivojlanish bosqichlari haqida soʻz yuritishdan oldin bu jarayon tadqiqida asos vazifasini oʻtagan ilmiy mezonni taʼkidlash joiz.

Insoniyat tarixi turli soha olimlarining tadqiqotlari, kashfiyotlaridagi maʼlumotlar asosida davrlashtirilgan. Har bir fan sohasi oʻzining muayyan xususiyatlaridan kelib chiqib, bu davrlarni har xil nomlar bilan atagan. Albatta, qoʻyilgan nomlar fanning muammolari bilan bogʻliklikda, inson aqlining mahsuli boʻlgan mantiq asosida dalillangan. Gap, bu oʻrinda, davrlashtirishning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligida emas. Har bir fan sohasi, u ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, aniq fan boʻladimi, oʻzining mavjudligini insoniyat tamadduni tarixiga qandaydir shaklda konkret munosabati bilan namoyon qiladi. Muhimi, mana shu konkret munosabatning aniqlik chegarasi qay darajada ekanida.

Ilm tabiatan aniqlikni taqozo qiladi. “Ilmiy haqiqat” deb taqdim etilayotgan xulosalar taxmindan qanchalik xoli boʻlsa, ilmiylik sifati shunchalik yuqori boʻladi. Yaʼni, ilmiy haqiqat taxmin tugagan joydan boshlanadi. Shunday ekan, Sharh ilmi ildizini “antik davr mutafakkirlari” deb atalmish Suqrot, Aflotun, Arastu, Hiraqlid yoki Xitoy faylasuflari Konfutsiy, Lao szilarga nisbat berilgan soʻzlar yoxud “Avesto”, Vedalar, Upanishadlar, shuningdek, Rim notiqlik sanʼati namoyandalari Sitseron, Mark Avreliy, Tatsit, Tit Liviylarning

faoliyati bilangina bog'lab qo'yilsa, yuqorida ta'kidlangan ilmiylik mezonni buziladi.

Sharh ilmining fundamental asosi ilohiy kalom — Qur'oni karim nuzuli jarayonida shakllandi. Bu muqaddas kitobning qanday nozil bo'lgan bo'lsa, shundayligicha bitta harfi ham o'zgarmasdan saqlanib kelayotganligi Payg'ambar (s. a. v.) zamonidan to bugungacha uzluksiz silsila bilan bog'langan tarixiy hujjatlarda to'la aks etgan. Tarixiy hujjatlarning ishonchliligi rad qilib bo'lmas ilmiy dalillar bilan isbotlangan. Har bir oyatning nozil bo'lish o'rni, vaqti, sababi insoniyat tarixida hayotining barcha jihatlarini eng kichik nuqtalarigacha to'la qayd etib borilgan yagona shaxs Muhammad alayhissalomning hadislarini orqali o'ta aniq va butun tafsilotlari bilan o'rganilgan.

Buyuk vatandoshimiz, muhaddislar imomi Muhammad ibn Ismoil Buxoriy 600 ming hadis to'plagan. Hadislarni jamlashda to'qson ming kishi huzurida bo'lgan. Ushbu hadislar ichidan saralangan 7 mingdan ortiq sahih hadisni o'n olti yilda yozib tugatgan mashhur الجامع الصحيح ("Sahih hadislar to'plami") kitobiga kiritgan. Savol tug'iladi: nima uchun shuncha yillik mehnat bilan to'plangan 600 ming hadis ichidan faqat 7 ming hadisgina kitobga kiritilgan?

Sababi — qonuniy ravishda Qur'onning sharhi maqomida e'tirof etilgan manba — hadislar har qanday shubha, taxminlardan batamom xoli bo'lsin. Zero, har bir fan sohasida qo'yilgan bosh masalaning yechimlari Qur'onda va hadislarda bevosita yoki bilvosita mavjud ekan, tafsir, hadis, aqida, fiqh, usuli fiqh, siyrat ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar o'rganilayotgan mavzularga nihoyatda mas'uliyat bilan yondashishga majburdir. Olimlar bu majburiyatni muvaffaqiyat bilan uddalaganiga tarix guvoh. Jahon fani olamida erishilgan yutuqlarga nazar solib, 1400 yillik tarixga ega islomiy ilmlar ko'plab cho'qqilarni zabt etganini ko'rish mumkin. Tibbiyot, falakiyot, matematika, geometriya, fizika, kimyo kabi bir qancha fan sohalarida Yevropa uchun inqilobiy taraqqiyot yo'llarini Sharq tafakkuri ochib bergani bugun ayon haqiqat.

Ammo filologiya sohasida ham yutuqlar uchun sharoit Sharqdan boshlangani tor doiradagi mutaxassislar uchun ham ma'lum emas. Sharqda ijtimoiy-gumanitar fanlarning kelib chiqishi Qur'oni karim va uni o'rganish bilan bog'liq. Statistika sohasida qo'yilgan birinchi qadamlar ham ulug' kitob matnini yig'ib, mus'haf holiga keltirish jarayonida amalga oshdi. Qur'on avval surama-sura, oyatma-oyat yig'ib tartibga solingach, so'zlar soni, hatto harflar miqdorigacha aniq hisobga olingan. Yig'ilgan suralar matnlari va

tartibini o'rganish hozirgi kunda matnshunoslik ilmining mukammal prinsipini, dastavval, islom kelgan davridayoq yuzaga chiqargan edi. Shu jarayonning o'zida bir guruh olimlar fonetika ilmiga asos soldilar. Sharqda bu ilm hanuzgacha ilmi tajvid nomi bilan atalmoqda. Ilmi tajvid olimlari Qur'oni karim matni asosida arab tili fonetikasini batafsil bayon qilib berganlar. Natijada, bu ilmni o'zlashtirgan yevropalik olimlar uchun ilmi tajvidda mavjud fonetik hodisalarni tushuntiruvchi qonuniyatlarni o'z tillariga tatbiq qilish va ularni o'zlariga tushunarli atamalar bilan nomlashdan iborat vazifagina qolgan.

Leksikografiya va leksikologiyaning Yevropadagi ravnaqi ham Qur'onni o'rganishdan orttirilgan bilim va tajribalarni o'zlashtirishdan boshlangan. Holbuki, lug'atlarga hozirgi kun nuqtayi nazaridan qo'yiladigan talablar arab leksikografiyasida bundan ming yil ilgari ham bor edi. Ya'ni, Qur'on uchun tuzilgan lug'atlar X asrdan boshlab izohli va ikki tilli lug'atlar uchun zamin yaratish bilan birga, hozirgi kunda, deyarli barcha tillarning lug'atlarini tuzish uchun zarur bo'lgan leksikografik usullarga asos bo'ldi.

Bu dalillarni keltirishimizdan maqsad — Qur'oni karimni ko'klarga ko'tarish va shu yo'l bilan uning qadrini oshirish emas. Zero, u insonning bunday yordamiga muhtoj ham emas. Balki aytmoqchimizki, barcha fanlar sohasidagi izlanishlar har qanday taxmin-u gipotezalardan mutlaq xoli ekanligi ilm ahli tomonidan to'la tan olingan mustahkam ilmiy asosga qurilsagina, tom ma'noda haqiqat qaror topadi. Ilohiy Kalom shunday ishonchli manba bo'lgani uchun ham uning haqiqatidan ilhomlangan olimlar natijalar ketidan natijalarga erishdilar. Olamga, odamga munosabatda paydo bo'lgan sog'lom ilmiy mezon tufayli ulkan kashfiyotlar davri boshlandi.

Xullas, mana shu ilmiy mezonga ko'ra sharh ilmining vujudga kelishi, shakllanishi, mustaqil ilm sifatida barqarorlashuvi hodisalarini Islomdan keyingi davr bazasida o'rganishni maqsad qildik.

Asosiy qism

Sh. Jabborov o'zining "Germenevtika — tushuntirish ilmi" [Jabborov 2010, 154] kitobida shunday deb yozadi: "XVIII-XIX asrlarda nemis olimlari tomonidan fan sifatida tafakkur maydoniga tashlangan falsafiy germenevtika boshqa ko'rinishda azaldan Sharqda ham mavjud bo'lgan bilish, tushunish, sharhlash va izohlash bilan bog'liq ta'limotdir. Germenevtika metodi bilan G'arbda Injil matnlarini izohlaganlaridek, bizda ham Qur'oni karim oyatlarini

tafsir va ta'vil qiladigan, hadisi sharif ma'nolarini izohlaydigan, mutafakkir ajdodlarimizning asarlarini sharhlaydigan mufasssirlar, muhaddislar, faqihlar ilmi azaldan shakllanib, rivojlanib kelgan" [Жабборов 2010, 4].

Mazkur qarashga qo'shilgan holda ta'kidlash joyizki, bu hukmlar konkret ilmiy dalillar bilan asoslansa, ayrim fikrlar yanada to'ldirilib davom ettirilsa, natija ravshanroq bo'ladi. Sharh ilmining ildizlari qadim tafsirlarga borib taqalar ekan, bu ilm haqida muayyan tasavvur paydo bo'lishi uchun tafsirning ta'rifi, paydo bo'lish va shakllanish tarixi bilan tanish bo'lmog'imiz lozim.

"Tafsir" so'zining lug'aviy ma'nosi — *izohlash, sharhlash, bayon va tafsil*. القاموس المحيط ("Qamrovchi qomus") lug'ati muallifi Feruz Obodiyning aytishicha, *tafsir* — so'zdagi chigallikni yechishdan ko'zlangan maqsadni ochish. Abu Hibbon Naxviy *tafsir*ning istilohiy ma'nosini shunday ta'riflaydi: "*Tafsir* — Qur'on lafzlari, lafzlarning yolg'iz va jumla tarkibidagi hukmlari va ma'nolari orqali nutqning kayfiyati haqida bahs yurituvchi ilmdir" [15 ابو حيان النحوى].

Manbalarda tafsir so'zining ma'nodoshi sifatida *ta'vil* (تأويل) so'zi ham qo'llangan. *Ta'vil* so'zining lug'aviy ma'nosi — *qaytish*, istilohiy ma'nosi — gapni sharhlash, ma'nolarini bayon qilish. Muavvil — gapni ehtimol qilingan ma'nolardan biriga qaytaruvchi.

Qur'oni karim arab tilida nozil bo'lgani uchun Payg'ambar alayhissalomning zamondosh izdoshlari — sahobalar oyatlarning umumiy jihatlari va hukmlarni to'la anglar, ammo Qur'onning xos va nozik tomonlarini fahmlashda farqlanardilar. Chunki so'zlarning ma'nosi, oyatlarning nozil bo'lish sabablarini barcha sahobalar bir xilda bilmas edi. Shuning uchun ham fahmlari yetmagan o'rinlarda Payg'ambar alayhissalomga murojaat qilishar, Rasuli akram ularga bu oyatlarni tafsir qilib berardi.

Muhammad alayhissalom vafotidan so'ng ayrim sahobalar Rasuli akramdan eshitganlariga muvofiq oyatlarni sharhladilar, hatto tafsirlari bilan tanildilar. Suyutiy o'zining «نقاتال» ("Mukammallik") kitobida ulardan bir nechtasini sanaydi: Abu Bakr, Umar, Usmon, Aliy, Ibn Mas'ud, Ubay ibn Ka'b, Zayd ibn Sobit, Abu Muso Ash'ariy, Abdulloh ibn Zubayr roziyallohu anhum.

Sahobalar davrida Qur'on uch manba asosida tafsir qilindi:

1) Qur'oni karim; 2) sunnati nabaviy; 3) sahobalar so'zlari.

Dastlabki tafsirlarda Qur'on Qur'on bilan sharhlandi. Ya'ni, Qur'onda bir oyatda qisqaroq ifodalangan mavzu boshqa o'rinda kengroq izohlangan holatlar mavjud. Mufasssirlar bir oyatda lo'nda berilgan mavzu yoki hukmni boshqa oyatda kelgan ayni mavzu yoki

hukmning kengroq tafsiloti orqali tafsir qilishgan. Mufasssirlikda bunday tafsir yo'lining qimmatini baland sanalgan.

Payg'ambar alayhissalom Qur'on oyatlarini lozim o'rinlarda sahobalarga izohlab tushuntirgan. Bu holat ba'zan sahobalarning savollari, ba'zan Payg'ambar (s. a. v.)ning ixtiyori bilan amalga oshgan. Qur'on mana shunday hadislar orqali ham tafsir qilingan va tafsirning bu turi — التفسير بالمأثور — "Payg'ambar alayhissalomdan qolgan izlar, ya'ni hadislar bilan tafsir qilish" deb atalgan.

Sahobalar ba'zi oyatlar tafsirini Qur'ondan ham, hadislardan ham topolmaganlarida o'z ijtihodlari, qarashlaridan kelib chiqib tafsir qilganlar. Bunga sabab, ular Qur'onning nozil bo'lish sabablariga guvoh, shuningdek, arablarning odatlaridan, arab tilining nozik jihatlaridan xabardor edilar.

Musulmonlar safi kengayib, Islom chekka o'lkalargacha yoyilgach, uchta tafsir maktabi shakllangan:

1. Makkayi mukarrama maktabi. Ustozi — ulug' sahobiy Abdulloh ibn Abbos va shogirdlari Sa'id ibn Jubayr, Mujohid, Ikrima...

2. Madinayi munavvara maktabi. Ustozi — sahobiy Ubay ibn Ka'b va shogirdlari Zayd ibn Aslam, Abu Oliya, Muhammad ibn Ka'b Quroziy...

3. Iroq maktabi. Ustozi — sahobiy Abdulloh ibn Mas'ud va shogirdlari Alqama, Masruq, Asvad, Murra, Omir, Hasan, Qatoda...

Bu davrda sahobalardan keyingi avlod — tobe'inlarning so'zlari ham tafsirlarga qo'shildi. Hijratning ikkinchi yuz yilligi (IX asr) boshidan musulmonlar o'z ilmlarini yozib, qayd qilib borishga kirishishdi. Avvalida tafsirlar hadislarining bir bobi sifatida kitoblarga kirdi. Keyinchalik ular hadislardan ajratilib, tafsirlar alohida ta'lif qilina boshladi. Sura va oyatlar sharhini o'z ichiga olgan avvalgi tafsirlardan Kisoiy (vaf. 189/805), Al-Farro (vaf.207/823), Ibn Moja (vaf. 273/887), Ibn Jarir Tabariy (vaf.310/923), Ibn Munzir Naysaburiy (vaf. 318/930), Hotim (vaf.327/939) tafsirlarini misol keltirish mumkin. Bu tafsirlar oyatlarda uchrovchi nodir so'zlar izohi, oyatlar bilan bog'liq hadislar, sahoba va tobe'inlarning ba'zi oyatlar xususidagi so'zlarini o'z ichiga olgan.

Keyinchalik ilmlar turlarga bo'lina boshlagach, turli xil qarashlar, farqli aqidalar yuzaga keldi. Har ilm sohasi tafsirga o'z darajasidan yondashar ekan, natijada Qur'oni karim iboralari bo'yicha ilmiy istilohlar, mazhabiy aqidalar, tafsir madaniyati va falsafasi paydo bo'ldi. Muayyan fanning mohir ustalari fan mohiyati va mahoratidan kelib chiqib, Qur'on tafsiriga mashg'ul bo'ldilar. Pirovardida, tafsir yo'llari yo'nalishiga ko'ra bir necha navlarga

ajraldi:

- lug'aviy tafsirlar;
- aqliy tafsirlar;
- fiqhiy tafsirlar;
- tarixiy tafsirlar;
- firqalar tafsiri;
- mutasavviflar tafsirlari.

Lug'aviy tafsirlarda oyatlarning til xususiyatlari, xususan, so'zlarning sintaktik bog'lanishlari o'rganilgan. Bunga Vohidiyning "البسيط" ("Sodda sharh"), Abu Hayyanning "البحر المحيط" ("Qamrovli ummon") tafsirlarini misol qilish mumkin.

Aqliy tafsirlarda donishmandlar va faylasuflarning so'zlariga e'tibor qaratilgan, ularning shubhalariga raddiyalar berilgan. Faxr Roziyning "مفتاح الغيب" ("G'ayb ochqichlari") asari shunday tafsirlar jumlasidandir.

Fiqhiy tafsir turida fiqhiy hukmlarning dalillari keltirilgan. Mufassir o'z mazhabiga muvofiq ravishda fiqhiy masalalarni hal qilgan, dalillarining kuchliligi boshqa mazhab dalillariga qiyosan isbotlangan. Hanafiy mazhabidagi Al-Jassosning "احكام القرآن" ("Qur'on hukmlari"), Molikiy mazhabidagi Qurtubiyning "الجامع لاحكام القرآن" ("Qur'on hukmlarini jamlovchi") asarlari fiqhiy tafsirga misol bo'ladi.

Tarixiy tafsirlarda qissalar, qadimda o'tgan qavmlarning tarixi kengroq sharhlangan. Saolibiyning «الخازن» ("Saqllovchi") asarini tarixiy tafsir deyish mumkin.

Turli firqa va aqida egalariga oid tafsirlarda har bir firqa o'z aqidasiiga ko'ra Allohning kalomini tafsir qilgan. Rummoniy, Jabboiy, Qozi Abdujabbor, Zamaxshariy tafsirlari bunga misol bo'ladi.

Tasavvufga oid tafsirlarda *targ'ib* (jannatga rag'batlantirish) va *tarhib* (do'zaxdan qo'rqitish, ogohlantirish) masalalariga, oyatlardan botiniy sirlar, ramziy ishoralar chiqarishga diqqat qilingan. Bu navga Ibn Arabiy va Abu Abdurahmon Sullamiy tafsirlarini kiritish mumkin.

Vaqt o'tishi bilan ilohiy Kalomni tushunish yo'lida orttirilgan boy tajriba inson aqliy mehnati mahsuli bo'lgan manbalarga nisbatan ham qo'llana bordi. Ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, aniq fanlarga oid ayrim asarlarga sharhlar yozila boshladi. Sharh ilmi shu darajada rivojlandiki, bitta kitob matniga o'nlab jildli sharhlar bitildi, sharhlarga sharhlar yozildi.

Masalan, mo'tabarlikda Qur'ondan keyin turuvchi manba — "الجامع الصحيح" ("Sahih hadislar to'plam") asariga "عمدة القارى" ("Qur'on tayanchi") va "فتح البارى" ("Yaratuvchi kashfi"), "شرح صحيح البخارى" ("Buxoriyning "Sahih" sharhlari") kabi mashhur sharhlar dunyoga

keldi. «صحيح المسلم» (“Muslim sahihi”), “سنن نسائي” (“Nasoiy sunanlari”), “سنن ابن ماجه” (“Ibn Moja sunanlari”) kabi hadislar to‘plamlariga ham ishonchli sharhlar bitildi.

Alouddin Samarqandiyning uch juzli “تحفة الفقهاء” (“Faqihlarga tuhfa”) asariga Alouddin Abu Bakr ibn Mas’ud ibn Ahmad al-Kosoniyning o’n juzdan iborat “بدائع الصنائع في ترتيب الشرائع” (“Shariat qonunini tartiblashda go’zal san’atlar”) sharhi, Hafizuddin Nasafiyning “البحر الرائق شرح كنز الدقائق” (“Inja xazinalar” sharhining tiniq dengizi”) asari, Imom Burhoniddin Marg’inoniyning “الهداية” (“To’g’ri yo’lga yo’llanma”) kitobiga Mahmud ibn Ubaydullohning “وقاية الرواية في مسائل الهداية” (“Hidoya” masalalaridagi qarashlar muhofazasi”) sharhi va ayni sharhga sharh — Ubaydulloh ibn Mas’udning «وقاية الرواية» (“Qarashlar muhofazasi”) asari ham hanafiy mazhabi bo’yicha yozilgan mashhur sharhlar jumlasiga kiradi. “وقاية الرواية” sharhi diyorimizda “مختصر الوقاية” (“Qarashlar muhofazasi”)ning qisqa bayoni”) — nomi bilan tanilgan bo’lib, madrasalarda asosiy fiqhiy darsliklardan biri sifatida o’qitilgan.

Najmuddin Umar ibn Ali Qazviniyning “الشمسية” (“Shamsiya”) asariga Qutbiddin Roziy Tahtoniyning “تحرير القواعد المنتقى في شرح” (“Shamsiya” sharhidagi mantiqiy qoidalar tahriri”) sharhi, Sa’duddin Taftazoniyning “السعدية” (“Sa’diya”) sharhi, “مزان المنطق” (“Mantiq o’lchovi”) asariga Abdulloh ibn Haddod Usmoniyning “بديع المزان” (“Go’zal mezon”) kitoblari VIII-XIV asrlarda mantiq ilmi bo’yicha amalga oshirilgan sharhlarga misol bo’ladi.

Tilshunosliksohasida Ibn Hojibning “الكافية” (“Kifoya qilguvchi”) asariga Abdurahmon Jomiyning “فوائد الضيائية” (“Ziyovuddinning foydalari”¹), Roziyuddin Astrobodyning “شرح الراضى على الكافية” (“Kofiya” kitobiga Roziy sharhi”) sharhlari, Ibn Hishomning “شرح” (“Sochilgan zar” kitobiga sharh”), Hasan Hifziyning “شرح” (“Ujrumiyya sharhi”) Bahouddin Abdulloh ibn Uqayliyning “شرح ابن عقيل” (“Ibn Uqayl sharhi”) asarlari, fasohat va balog’at ilmi bo’yicha Sakkokiyning “مفتاح العلوم” (“Ilmlar kaliti”) asariga “معاهد” (“Talxis” dalillariga iqtibos o’rinlari”), Jaloliddin Qazviniyning “الايضاح في علوم البلاغة” (“Balog’at ilmlariga izoh”), “تلخيص المفتاح” (“Ilmlar kaliti” asarining qisqa sharhi”), “مختصر” (“Ma’nolarning muxtasar bayoni”) singari sharhlar ham mustaqil asar sifatidagi manbalardan hisoblanadi.

Shuningdek, Jaloliddin Rumiyning mashhur “Masnaviyi

¹ Arab tili grammatikasiga bag’ishlangan bu sharhni Abdurahmon Jomiy o’g’li Ziyovuddinga qo’llanma sifatida yozgan. Markaziy Osiyoda bu sharh “Sharhi Mullo Jomiy” nomi bilan mashhur.

ma'naviy" kitobi Sulton Valad, Ahmad Aflokiy, Faridun Sipahsolor, Sham'iy, Sarvariyy va Shibliy No'moniy tomonidan sharhlangan. Hofiz Sheroziy devoniga ham bir necha sharhlar yozilgan. Bular ichida eng e'tiborli sharh XVI asrda yashab o'tgan turk olimi Sudiy Basnaviy qalamiga mansubdir. Adabiyotshunos olim N. Komilovning xabar berishicha, Sudiy Hofiz devonidan tashqari, Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini hamda Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" sini turk tilida sharhlagan. Sudiy sharhlari butun Sharq mamlakatlariga tarqalgan. O'zbek ziyolilari ham lug'atlar tuzish, tarjima jarayonida Sudiy sharhlaridan foydalanganlar. Chunonchi, Sa'diy asarini "Shavqi Guliston" [Сайфуллох 2005] nomi bilan o'zbek tiliga o'g'irgan Murodxo'ja ibn Solihxo'ja hoshiya sharhida Sudiyga suyanadi va unga havolalar qiladi [Комилов 1987, 182].

Sharqda sharh ilmi mana shunday tadrijiylikda tarmoqlanib shakllangan. Har tarmoq o'zi o'rganayotgan matnga maxsus yondashgan bo'lsa-da, barcha turdagi sharhlar uchun umumiy, tarmoqlararo barqaror qonuniyatlar mavjud edi. Ularni shunday tasnif qilish mumkin:

1) *matn qismlarga ajratilgan* (masalan, tafsirda bitta oyat yoki bir nechta oyatlar; hadis sharhida farqlanuvchi rivoyatlar; nazmda baytlar, misralar; nasriy asarlarda umumiy mazmun silsilasidagi mikromatn yoki propozitsiya xalqasi; ilmiy manbalarda tushunchalarning tizimli tasnifi);

2) *qismning butunga munosabati aniqlangan* (turli suralarga sochilgan, bitta voqelikka aloqador oyatlarni yolg'iz oyat tafsirida jamlash; hadisning har xil rivoyatlarini bitta hukmda markazlashtirish; baytlar aro bog'lanishlarni umumiy yaxlitlikda tadqiq etish; propozitsiyalardan makropropozitsiya hosil qilish);

3) *matnga til tizimidagi hodisa sifatida qaralgan* (matndagi ayrim so'zlarning fonetik tuzilishidan tortib, gapdagi morfologik, sintaktik vazifalarigacha, lug'aviy, istilohiy, majoziy ma'nolari-yu, etimologiyasigacha, hatto matnning psixolingvistik xususiyatlari izohlangan).

Adabiyotshunos olim B. Karimovning fikricha, "Sharq germentevtikasi" muayyan taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tib, XX asr o'zbek adabiyotshunosligi uchun zamin bo'lgan emas. Bu ilmlar o'zining mavzu doirasini kengaytirib, G'arbda "siljish" yuz berganidek, badiiy adabiyot ilmi doirasiga kirib kelmadi. XX asrda o'zbek adabiyotshunoslari Sharqdagi an'anaviy ilmiy tamoyillarga emas, balki G'arb olimlarining ilmiy-adabiy mezonlariga murojaat

etishga majbur bo'ldilar" [Каримов 2011, 83–84].

B. Karimovning "Sharq germenevtikasi" birikmasini qo'shtirnoq ichida bergani bejiz emas. "Germenevtika" deb nomlangan bu ta'limot metodologiya sifatida G'arbda vujudga kelgan bo'lib, uning asoschilari nemis ruhoniy ulamosi va faylasufi F. Shleyermaxer (1768–1834), faylasuf V. Diltey (1833–1911), ekzistensialist-faylasuf M. Xaydegger (1889–1976) va uning shogirdi G. Gadamer (1900–1991) lardir. Albatta, bir maqola doirasida germenevtik metodologiyaning vujudga kelish tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida batafsil ma'lumot berishning iloji yo'q [Аллаёрова 2010, 26; Жабборов 2010]. Shuning uchun quyida bu ta'limotning mohiyati va asosiy jihatlarini xususida muhtasari to'xtalamiz.

Germenevtika matnini tushunish va tushuntirish masalasi bilan shug'ullanadigan fandir. Germenevtik ta'limot rivojiga sezilarli hissa qo'shgan F. Shleyermaxer germenevtik metodologiyani tabiiy fanlar metodologiyasiga qarshi qo'yib, ruh haqidagi fanlar uslubi sifatida qaraydi [Шлейермахер 2004, 26]. V. Diltey tadqiqotlarida tushunish va tushuntirish individning ichki ruhiy holatiga bog'lab tahlil etilgan. M. Xaydegger birinchi marta germenevtikani bilish uslubi sifatida talqin qilgan.

Olimlarning bu qarashlari "Adabiyotshunoslik lug'ati"da [Куронов ва бошқалар 2010, 82–84] yetarli tafsilotlari bilan bayon qilingan. Germenevtikaning mohiyati haqida to'laroq tasavvur hosil bo'lishi uchun ulardan ba'zilarini muhtasari keltiramiz.

Shleyermaxer qarashicha, germenevtika yozma manbalarni tushunish san'ati haqidagi ta'limotdir. Har qanday yozma manba (matn) ikkiyoqlama tabiatga ega: bir tomondan, u til tizimiga nisbatan qism, ikkinchi tomondan, muayyan bir individning ijod mahsuli. Shuning uchun germenevtika oldida bir-biriga bog'liq ikkita vazifa turadi: birinchisi — matndagi lisoniy ifodani muayyan til tizimining uzvi sifatida o'rganish, ya'ni grammatik talqin; ikkinchisi — uning ortida turgan betakror subyektni anglash, ya'ni psixologik talqin. Diltey "Har qanday individning ijod mahsuli hayotni obyektivlashtirishdan boshqa narsa emas. Inson o'zga shaxsda ham o'zida tushuna olgan narsani tushunadi. Shu tariqa hayot idrok etuvchiga monanddir", — deydi. M. Xaydegger "tushunish"ni bilish emas, mavjudlik usuli deb qaraydi. Unga ko'ra, tushunish inson mavjudligining asosiy belgilaridan biri, inson mavjudligi dastavval tushunish taqozo etiladigan holat, shu holatni tushuntirish germenevtikaning vazifasidir.

Xaydeggerning shogirdi va davomchisi Gadamer matnini

tushunish bilan o'quvchining o'z-o'zini tushunishi bir-biridan ajratib bo'lmaydigan jarayon va tushunish ko'p jihatdan o'quvchiga bog'liq, lekin bu matn talqini mutlaqo erkin, o'quvchi ma'naviy-ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib uni xohlagandek tushunishi mumkin, degani emas, talqin matnda moddiylashgan mazmunni tushunish demakdir, degan xulosaga keladi. Shuning uchun ham Gadamer o'tmishda bitilgan matnni "zamona"lashtirib tushunishga, unga zamona muammolarini singdirishga qarshi. Uning ta'limotida til asosiy o'rin tutadi, chunki til tufayligina an'ana tirik, til ruhiyatida "harakatdagi tarixiy ong" voqea bo'ladi: tushunilayotgan asar o'quvchidan tarixan qanchalik uzoq bo'lmasin, u bilan muloqotga kirishadi, muloqot asnosida o'sha asar ham, amalga oshirilayotgan talqin ham "an'ana hodisasi"ning uzviga aylanadi.

Fransuz olimi Pol Rikyor hermenevtikada o'zaro zid ikki teleologik va arxeologik yo'nalish mavjudligini ta'kidlaydi. An'anaviy hermenevtikani teleologik deb atarkan, Rikyor uning maqsadlilikidan, ya'ni asosiy e'tibori matnning zohiriy mazmuni va unda aks etgan shaxs ruhini anglashga qaratilganidan kelib chiqadi. Ikkinchi yo'nalish arxeologik yo'nalish bo'lib, u matn(gap)ning voqe bo'lish sababini va shundan kelib chiqqan holda botiniy mazmunini anglashga qaratilgandir. Uning uqtirishicha, inson shafqatsiz olamda ovunch izlaydi, uni o'zi yuzaga keltirgan olamdan topadi, bu olam uning o'z ma'nolaridan iboratdir. Arxeologik hermenevtika shu illyuzor olamda voqe bo'lgan matn ortida turgan odamning o'zi ham anglamagan (ongsizlik) yoki atayin yashirgan ma'nolarni topish, "fosh etish" bilan shug'ullanadi. Shu sababli Rikyor Gadamerning lingvotsentrik qarashiga qo'shilmaydi, uning uchun til an'anasi emas, balki ramzlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Arxeologik hermenevtikada tushunishning muhim xususiyati — unda talqin qiluvchi bilan matn ortidagi shaxs muloqoti uziladi, matn ortidagi subyekt ham obyektga aylanadi.

Hermenevtikaning nazariy asoslari E. Gusserl, F. Sossyur, L. Vitgenshteyn, M. Baxtin, Yu. Mann, K. Gempel, G. Frege kabi olimlar ijodida mustahkamlandi. L. Vitgenshteyn tafakkur, til, so'z xususiyatlarini tahlil etib, filologik hermenevtika maktabiga asos solgan [Витгенштейн 1995, 344]. M. Baxtinning "Muallif va qahramon" asarida badiiy ijod hermenevtikasi sathida tushunish va tushuntirish masalalari maxsus o'rganilgan, san'at va auditoriya, aktyor mahorati, tomoshabin, kuzatuvchi, san'at asarining insonlar tomonidan qabul qilinishi kabi muammolar tadqiq etilgan [Бахтин 2000, 365]. Y. Borev, Y. Mann, E. Kassirer, K. Girs kabi

olimlarning tadqiqotlarida badiiy matndagi ramzlar talqini hamda germenevtikaning estetik mushohadaga bog'liq muhim xulosalari qayd qilingan.

Kuzatishimizga ko'ra, XIX asr o'rtalariga kelib, germenevtika falsafiy yo'nalish va mustaqil ta'limot sifatida g'arb adabiyotshunosligi uchun muayyan darajada zamin bo'lib xizmat qilgan. Endi "Sharq germenevtikasi" muayyan taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tib, XX asr o'zbek adabiyotshunosligi uchun zamin bo'lgan emas" degan qarashga kelsak, agar sharh ilmining mohiyati, maqomi va tarixidan kelib chiqilsa, bu nisbiy qarashdir. Negaki, XIX asr G'arb germenevtikasida qo'llangan zarurat va tasodif, butun va qism, shakl va mazmun, miqdor va sifat, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, xususiylik va umumiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, ratsionallik va irratsionallik, mohiyat va hodisa kabi kategoriyalar Sharqda ming yil oldin, Sharh ilmining dastlabki namunalari dayoq amalda qo'llangan edi. Keyinchalik bu tajriba asarlardan asarlarga o'tib, bugungacha ta'sirini yo'qotmasdan, muayyan darajada o'z funksiyasini bajardi va bajarmoqda. Misol uchun, Alisher Navoiy asarlarining o'rganilish tarixiga nazar solaylik. "بدائع اللغة" ("Ajoyib lug'at"), "Abushqa", "Sangloh", "كتاب لغة الاتراكية" ("Turkiylar so'zligi kitobi") lug'atlaridagi talqinlarda, "Xamsa" dostonlari asosida Umar Boqiy, Mahzun, Mulla Siddiq Yorkandiyning nasriy qissalarida, keyingi asrlarda amalga oshirilgan Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom, Solih Mutallibov, Amin Umariy, Shokir Husaynzoda, Yunus Latif, To'xtasin Jalolov, Aziz Qayumov, Inoyat Maxsumov, Abduqodir Hayitmetov, Vahob Rahmonov, Mavjuda Hamidova va Anvar Hojiahmedovning "Xamsa" dostonlari asosidagi nasriy bayonlarida, Alibek Rustamov, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqulovlarning Navoiy g'azallari sharhlarida sharh ilmi qonuniyatlarining u yoki bu darajada aks etganligini, so'nggi yuz yilliklarda ham Sharh ilmi an'analariga izdoshlik davom etayotganligini kuzatish mumkin.

Shu o'rinda, mumtoz adabiy matnlar tadqiqida voqea bo'lgan, XXI asr adabiyotshunosligimizga yangi nafas olib kirgan "غرائب الصغار" ("Bolalik ajoyibotlari") devonidagi "Ashraquat..." deb boshlanuvchi g'azal sharhining yangicha talqinini alohida ta'kidlashimiz zarur. Mazkur ishda tadqiqotchi A. Qozixojayev Navoiyning bitta g'azalini sharhlash misolida ham eniga, ham bo'yiga cheksizliklar qadar kengayib boruvchi ko'p sathli matn maydonini qamrab olishga uringan. Harakat balog'at fani tarkibiga kiruvchi maoniy, bayon va adab ilmining qat'iy qoidalari asosida olib borilgani uchun butun tadqiq jarayonida maqsadning aniqligi saqlangan. Ayni xususiyat

uslubning ravonligini ta'minlagan, tadqiqotning joziba kuchini oshirgan.

A. Qozixo'jayev, garchi lahza deb nomlansa ham, avval-u oxirni o'zida jamlagan ulkan voqelik sharhiga kirishar ekan, Yusuf Sakkokiy, Abdurahmon Qazviniydek allomalarni o'z ilmiy dalillari bilan bugungi o'quvchiga yuzma-yuz qiladi. Tadqiqotchi g'azalning (اشرقت من عكس شمس الكأس انوار الهدا) deb boshlanuvchi misrasini arab tili va balog'at ilmi qoidalari asosida o'rganar ekan, barcha zamon-u makonlarni o'zida jamlagan g'azal voqeligini kuzata boshlaydi. Misralardagi so'zlar, jumlar ortiga yashirin ma'nolardan taralayotgan ovozlarga quloq tutadi, ovoz egalarini bir-bir ajratib, maoniy ilmi istilohlari bilan ularga nom beradi. Xayoliy voqelikdagi holatlar individuallashib boradi. Lirik qahramon, noma'lum shaxs, va muallifdan iborat yig'inda endi shorihning ishtiroki ham sezila boshlaydi, baytlar aro muloqot jonlanadi.

A. Qozixo'jayev baytlarni sharhlash asnosida balog'at ilmidagi "muqtazoyi hol" (holat taqozosi) tushunchasiga e'tibor qaratadi: "Poetikmatnesa tarixiy va zamondosh matnlar bilan uzviy bog'langan. Muqtazoyi hol tushunchasi poetik matnni ham, shoirning estetik qarashlarini ham, badiiy asar makon va zamonini ham, kechayotgan ichki va tashqi muloqotlarni ham, katta zamondagi dialogni ham qamrab oladi. Shoirni umr bo'yi qiynagan his-tuyg'ularning hol taqozosi mavjud bo'lganidek, ular ifodasi o'laroq reallikka aylangan so'zlarning ham muqtazoyi holi bor. Holat taqozosida hamisha nutq kimgadir qaratilganligi va kimnidir savoliga javobligi bilan ajralib turadi. Hol taqozosini aniq ko'rayotgan shoir bir tomondan katta zamonda salafllari bilan muloqotga kirishsa, ikkinchi tomondan g'azal voqeligini daqiq idrok etib, muayyan qoliplardan foydalanadi... Jonli nutq hamisha vaqt bilan birga nafas oladi. Jonli ijro ham so'zlar qiymatini his eta bilishni va g'azal voqeligida yashashni, *birov* (g'azal voqeligidagi noma'lum shaxs) luqmalariga yuksak maqomda turib javob berishni taqozo qiladi...".

"Bayt o'z nomiga muvofiq, ustunlari, devorlari, sinchlari mustahkam bino qilingan — uy. Vazn, qofiya, badiiy san'atlar — uy bezaklari, nutq go'zalliklarining asli emas, tobelari. Asl go'zallik esa nutq mazmunida yashiringan. Mazmun esa muqtazoyi holning darajasiga qarab belgilanadi. Biz kuzatayotgan g'azalda muqtazoyi hol muqtazoyi zohirga chiqarilmagan. Hol taqozosining zohir taqozosiga olib chiqilmagani g'azal voqeligida kechayotgan lirik qahramon va *birov* muloqotini ko'rishni qiyinlashtiradi. Biroq zavqi salim egasi bu ichki dialogni jumlaning siyoqiga qarab anglab oladi. Bir

qarashda tarqoq tuyulgan baytlar orasini, aynan, g'azal voqeligidagi *birovning* muloqotga kirishi bog'lab turadi". A. Qozixo'jayevning "G'azal g'aroyibotlarining ibtidosi" deb nomlangan bu sharhi batafsil o'rganishni taqozo qiluvchi tadqiqotdir." Biz unga mavzumiz yuzasidangina yondashdik. Maqsadimiz — sharh ilmi an'analarning bugungi adabiyotshunosligimizda ham davom etayotganini anglatish edi.

Xulosa

Ma'naviy merosimizning muhim qismini tashkil qiluvchi sharh ilmiga oid manbalarni qanchalik chuqur o'rgansak, bu bilimning tekshirish usullari, ilmiy tamoyillari nafaqat zamonaviy adabiyotshunosligimiz uchun, balki germenevtika ta'limotining asoschilari bo'lgan G'arb olimlarining ilmiy-adabiy mezonlari uchun ham shunchalik mustahkam zamin vazifasini o'taganiga amin bo'lamiz.

Adabiyotlar

- لسان العرب لمحمد بن مكرم بن منظور الافرقى المصرى؛ مختار الصحاح لزين الدين الراضى؛ فقه اللغة
[?] ج العروس من جواهر القاموس للزبيدي، الجزء ١، الصفحة ٥٤٦١ للثعالبي
ابو حيان النحوى (ت ٥٧٤ هجرى. ٥١٠ البحر المحيط ص
- Аллаярова, С. 2010. *Фалсафий герменевтиканинг методологик жиҳатлари*. Фал. фан. ном. дисс. автореф. Тошкент.
- Бахтин, М. М. 2000. *Автор и герой: к философским основам гуманитарных наук*. Санкт-Петербург: Санкт-Петербург.
- Жабборов, Ш. 2010. *Герменевтика – тушунтириш илми*. Тошкент: Akademiya.
- Каримов, Б. 2011. *Адабиётшунослик методологияси*. Тошкент: Muharrir.
- Комилов, Н. 1987. *Бу қадимий санъат...* Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Куронов Д. ва бошқалар. 2010. *Адабиётшунослик луғати*. Тошкент: Akademnashr.
- Сайфуллоҳ, Сайфиддин. 2005. *Шавқи гулистон*. Тошкент: Фан.
- Витгенштейн. Л. 1995. *Tractatus Logico-Philosophicus. Философские достижения*. Киев: Основы.
- Шлейермахер, Ф. 2004. *Герменевтика*. Санкт-Петербург: Европейский дом.

R. Zohid

(Tashkent, Uzbekistan)

zokhidov@navoiy-uni.uz

The Roots of Commentary Science

Abstract

At the beginning of the article, scientific criterion is presented that serves as the basis for the development of commentary science and also the reasons for it. It is emphasized in the article that the importance of the precise boundary of this particular relationship to the social, humanitarian, natural, or other areas of science, with a specific relation to the history of human civilization. According to this scientific criterion, the origin, formation, and stabilisation of commentary science as an independent subject have been investigated in the post-islamic period. The dissemination of commentary science and the existence of the rules based on any commentary science are founded with the classified evidences. It is adduced that new arguments the scientific methods of commentary science, and its trends have served not only for our contemporary literature, but also for the scientific-literary principles of Western scholars, who were the founders of hermeneutics. The understanding and explanation of the knowledge of Oriental scholars that are typical features of oriental literature are compared with the ideology of Western scholars based on hermeneutics. The function to explain the meaning of interpretations of classical works is given with proofs.

Key words: *commentary science, hermeneutics, period, scientific principle, firm rule.*

About the author: Rashid Zohid – Doctor of Sciences in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named After Alisher Navoi'i.

Recommended citation: Zohid, Rashid. 2019. "The Roots of Commentary Science". *Golden scripts* 4: 34—49.

References

- لسان العرب لمحمد بن مكرم بن منظور الافرقى المصرى؛ مختار الصحاح لزين الدين الراضى؛ فقه اللغة تاج العروس من جواهر القاموس للزبيدي، الجزء ١، الصفحة ٥٤٦١ للنعالبي
ابو حيان النحوى (ت ٤٥٧ هجرى ٥١٠ البحر المحيط ص
Allayarova, S. 2010. *Falsafiyi germenevtikaning metodologik jihatlari*. Fal. fan. nom. diss. avtoref. Toshkent.

- Baxtin, M. M. 2000. *Avtor i geroy: k filosofskim osnovam gumanitarnix nauk*. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg.
- Jabborov, Sh. 2010. *Germenevtika – tushuntirish ilmi*. Toshkent: Akademiya.
- Karimov, B. 2011. *Adabiyotshunoslik metodologiyasi*. Toshkent: Muharrir.
- Komilov, N. 1987. *Bu qadimiy san'at...* Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Quronov, D. va boshqalar. 2010. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.
- Sayfulloh, Sayfiddin. 2005. *Shavqi guliston*. Toshkent: Fan.
- Vitgenshteyn, L. 1995. *Tractatus Logico-Philosophicus. Filosofskie dostijenii*. Kiev: Osnovi.
- Shleyermaxer, F. 2004. *Germenevtika*. Sankt-Peterburg: Yevropeyskiy dom.